FALSAFIY TAFAKKUR TARAQQIYOT BOSQICHLARI: SHARQ FALSAFASI

Shakarov Bobur Xusniddinovich - t.f.d., assistent
Rajabova Lola Sunnatilla qizi - talaba
Jabborova Durdona Baxtiyor qizi - talaba
Toshkent davlat btibiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya: *Qadimgi Sharq mamlakatlariga kiruvchi: Misr, Bobil, O‘rta Osiyo(Turon), Hindiston va Xitoyda falsafiy taraqqiyot bosqichlari va ularning shakllanishi. Shu bilan birga Sharqning o‘ziga xosligi, unga mansub bo‘lgan taraqqiyot jahon sivilizasiyasining beshigi, dunyo xalqlari rivojlanishiga munosib hissa qo‘shganligi. Qolaversa, vatanimiz sivilizatsiyasining sharq sivilizatsiyasi quchog‘ida voyaga yetgani va uning qadriyatlarini o‘zida aks ettirganini va butun dunyo madaniyatiga ulkan ta’sir ko‘rsatgani ushbu maqolada batafsil yoritib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Ovruposentralizm,Osiyosentralizm,Qadimgi Bobil, Qadimgi Misr, Qadimgi Hindiston, Vedalar, Braxmanlar, Aranyaklar, Upanishadlar, astika, nastika, Vedanta, sankxya, yoga, vaysheshika, n’yaya, mimansa, chorvaka – lokayata, Buddizm, Jaynizm, Qadimgi Xitoy, “Bilim darajasining mumtoz kitoblari”, In va Yan, Konfusiychilik.*

STAGES OF THE DEVELOPMENT OF PHILOSOPHICAL THOUGHT: EASTERN PHILOSOPHY

Shakarov Bobur Khusniddinovich - C.M.Sc., assistant
Jabborova Durdona - student
Rajabova Lola Sunnatillaevna - student
Tashkent State Medical University (Tashkent, Uzbekistan)

Abstract: *this article explores the stages of philosophical development and formation in the ancient Eastern civilizations, including Egypt, Babylon, Central Asia (Turan), India, and China. It emphasizes the distinctive characteristics of Eastern thought and its role as the cradle of world civilization, contributing significantly to the progress of humankind. Furthermore, the study highlights how the civilization of our homeland evolved within the context of Eastern civilization, embodying its core values and exerting a profound influence on global culture and intellectual heritage.*

Key words: *Eurocentrism; Asiacentricism; Ancient Babylon; Ancient Egypt; Ancient India; Vedas; Brahmanas; Aranyakas; Upanishads; Astika; Nastika; Vedanta; Samkhya; Yoga; Vaisheshika; Nyaya; Mimamsa; Charvaka–Lokayata; Buddhism; Jainism; Ancient China; “The Classics of Knowledge”; Yin and Yang; Confucianism; Daoism; Islamic philosophy.*

ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ФИЛОСОФСКОГО МЫШЛЕНИЯ: ВОСТОЧНАЯ ФИЛОСОФИЯ

Шакаров Бобур Хусниддинович – к.м.н., ассистент
Джабборова Дурдона Бахтиёровна – студент
Раджабова Лола Суннатиллаевна – студент
Ташкентский государственный медицинский университет (Ташкент, Узбекистан)

Аннотация: *в статье рассматриваются этапы философского развития и формирования древневосточных цивилизаций, включая Египет, Вавилон, Среднюю Азию (Туран), Индию и Китай. Особое внимание уделяется своеобразию Востока, чья цивилизация стала колыбелью мировой цивилизации и внесла значительный вклад в развитие человеческого общества. Кроме того, подробно освещается процесс становления цивилизации нашей Родины в лоне восточной цивилизации, отражение в ней её духовных и культурных ценностей, а также мощное влияние, оказанное на мировую культуру и философскую мысль.*

Ключевые слова: *евроцентризм; Азиацентризм; Древний Вавилон; Древний Египет; Древняя Индия; Веды; Брахманы; Араньяки; Упанишады; Астика; Настика; Веданта; Санкхья; йога; Вайшешика; Ньяя; Миманса; Чарвака–Локаята; Буддизм; Джайнизм; Древний Китай; «Классические книги знаний»; Инь и Ян; Конфуцианство; Даосизм; Исламская философия.*

Sharq qadimiy o‘chog‘i va jahon sivilizatsiyasining beshigi deya bejiz ta’riflanmagan. G‘arb madaniyati tarixini o‘rganish jaryonida Ovruposentralizm nazariyasiga og‘ib ketish g‘ayriilmiy bo‘lgani kabi, masalaning sharq bilan bog‘liq jihatini tahlil etganda ham Osiyosentralizm g‘oyalari ta’siriga tushmaslik lozim. Eng muhim ilmiy yutuqlar (hisobning oltmishtalik tizimi, yilning uzunligi, geometrik shakllar hajmining hisoblab chiqilishi va boshqalar) amaliy ahamiyatga ega bo‘lib, xo‘jalik yuritishda qo‘llanilar edi.

Qadimgi Bobil va Misr olimlari oy va kun tutilishi davriyligini aniqlashga muvofiq bo‘ldilarki, bu ularga bu hodisani oldindan aytish imkonini berdi. Bu ham amaliy ahamiyatga ega edi. Masalan, Misr uchun eng muhim hodisa bo‘lgan – Nil daryosining har yilgi ko‘tarilishi vaqt jihatdan osmonda yorug‘ yulduz bo‘lgan - Suhayl (Sirius)ning paydo bo‘lishi bilan muvofiq kelar edi. Misrlilar yulduzlar turkumi vaziyatida ko‘rinadigan Yerning Quyosh atrofidagi yo‘li joylashgan tekislikni (ekliptika) aniqladilar – va uni burjlarni (osmonda sayyoralar harakat qiladigan chambar yo‘l) tashkil etgan 12 qismga bo‘ldilar; har biri 30 kundan iborat bo‘lgan, 12 oydan tashkil topgan taqvimni vujudga keltirdilar. Bir kecha va kunduzning vaqti suv va Quyosh soatlari bilan o‘lchanar edi. Bobilliklarda bo‘lgani kabi Qadimgi Misrliklarning papirus qog‘ozlari (tropik qamishdan qilingan) tabobatni sehrgarlik usuli bilan davolashdan ajratilganligini ko‘rsatadi. Shunday asarlar paydo bo‘la boshlaydiki, ularda afsonalarni falsafiy talqin qilishga urinishlar ko‘zga tashlanadi (“Arfa chaluvchining qo‘shig‘i”, “Dunyodan xafsalasi pir bo‘lgan kishining o‘z ruhi bilan suhbati”, “Hayot ma’nosi haqida xoja va qulning savol-javoblari” va boshqalar). Masalan, “Arfist qo‘shigi” o‘lganlardan hech kim qaytib kelgan emas, u dunyo, oxirat to‘g‘risidagi gaplar yolg‘on, u dunyo yo‘q, kishi jismi o‘lgandan keyin chirib loyga tuproqqa aylanadi, xaqiqiy hayot esa yerdagi hayotdir, yerdagi hayot va unda o‘z baxtini topish uchun kurashish lozim, deb ta’kidlanadi. Qadimgi Bobilda topilgan, adabiy yodgorliklardan biri “Xo‘jayinning o‘z quli bilan hayotining mazmuni haqida suhbati” degan adabiy yodgorlikda birinchi tomondan xudolarga ishonish, ilohiy kuchlarning tabiat va jamiyatga ko‘rsatadigan ta’sirini mutloqlashtirish xususiyati ustuvor bo‘lsada, ikkinchi tomondan afsona va rivoyatlar tarzida bo‘lsa-da, dunyoviy bilimlar, ilmiy qarashlar ham asta-sekin shakllana boshlagan. Bu qarashlar insoniyat falsafiy fikrlari rivojlanishidagi muhim “qadamlar” bo‘ldi. Falsafiy fikrlar, yaxlit yoki sistemali bir dunyoqarash sifatida keyinchalik, miloddan avvalgi II asrning oxiri va I asrning boshlarida Qadimgi Hindiston mamlakatlarida yuzaga keldi. Bu vaqtlarda Hindiston madaniy-ma’naviy jihatdan nihoyatda rivojlangan mamlakat edi. Quldorlik tuzumi yangi o‘sib kelayotgan ilg‘or tabaqalarining falsafiy qarashlari o‘sha davrlarda anchagina keng tarqalgan braxmanizm diniy mifologik aqidalarga qarshi kurashlar jarayonida toblandi va bu hol asta sekin materialistik ruhdagi turli maktablarning kelib chiqishi uchun zamin hozirladi. Hindistonning qadimiy dini, falsafiy merosi, madaniyati ravnaqi uning yozma yodgorliklarida, asosan vedalarda (bilimlar diniy gimnlar, qo‘shiqlar to‘plamida) o‘z ifodasini topgan. Vedalar (samxitlar)ning eng muhimi Rigveda (xudolarga madhiya) bo‘lib, u miloddan avvalgi VI – asda yaratilgan qolganlari esa Yajurveda (qurbonlik qilish paytida aytiladigan ifodalar va hikmatli so‘zlar), Samaveda (kuylar, ashulalar, hamdu sano) va Atxarvavedalardan (afsunlar) iborat. Ma’lumki, vedalar turli toifalar, guruhlar vakillari tomonidan tuzilgan, izohlangan va rivojlantirilgan. Xususan braxmanlar tuzgan vedalar asosida braxmanizm dinining nazariy asoslari yaratildi. Bu oqim vakillari birdan bir reallik - dunyoviy ruh, ya’ni braxmandir, moddiy dunyo esa uning ijodiy mahsulidir, deydilar. Vedalar adabiyotining ikkinchi qatlam Braxmanlar bo‘lib, Samhitadagi mantralar qachon va qanday ishlatilishi kerakligini marosimlarning tafsilotlari va ularning ma’nosi, izohlari bayon etiladi. Marosim amaliyotini tizimli ravishda o‘rgatish; qaysi mantra(muqaddas tovush yoki so‘z) qachon aytiladi kim nima qilishi kerak-ularni aniq belgilaydi. Aranyaka-“o‘rmonning kitobi” degan ma’noda. Bu matnlar asketlar(dunyo lazzatlaridan o‘zini tiyuvchi ruhiy poklanadigan inson) va yogalar uchun (ruhiy uyg‘onishga intiluvchi shaxs). Upanishadlar- Vedalarning eng falsafiy, ichki prinsipial qismi. Upanishad so‘zi yaqinlashish yoki sirga yaqinlashish degan ma’noni anglatadi. Insonning mohiyati va olam bilan munosabatini ma’naviy jihatdan tushuntirish. Qadimgi Hind falsafiy maktablari ikki guruhga bo‘linadi. Hindistonlik faylasuflar bu guruhlarni astika(vedalarga va ilohiy haqiqatga ishonuvchi)va nastika(vedalarni rad etuvchi ilohiyotga ishonmaydi) deb ataydi. Astika quyidagi guruhlarni o‘z ichiga oladi: Yoga, Vaysheshika, Nyaya, Nimansa, Vedanta. Chorvaka-lokayata, Buddizm, jaynizm Nastika guruhiga kiradi. Qadimgi Sharq mamlakatlarida falsafiy meros haqida fikr yuritar ekanmiz, albatta Qadimgi Xitoy falsafiy merosiga e’tibor qilmasdan ilojimiz yo‘q. Biz Xitoy deb ataydigan mamlakatni xitoyliklarning o‘zlari goh Chjuna Go (O‘rta podsholik), goh Chjun kuva (O‘rta ravnaq) deb yoki biron sulola nomi bilan, masalan Sin (Chin degan so‘z xam xuddi o‘shandan) deb ataydilar. Xitoy falsafasi o‘zining gullab-yashnagan vaqtiga “urushuvchi davlatlar” deb atalgan davrda erishdiki, uni Xitoy falsafasining “oltin davri” (er.av. VI-III asrlar) deb atadilar. Asosiy falsafiy yo‘nalishlar quyidagilardan iborat edi: in-yan, konfutsiychilik, daosizm, ismlar maktabi moizm, legizm. Falsafa taraqqiyoti nuqtai nazaridan “O‘zgarishlar kitobi” (er.ol. XII-VI asrlar) eng muhimdir. Uning matnlarida afsonalardan falsafaga o‘tish boshlanganligini mushohada etish mumkin. “O‘zgarishlar kitobi”ning eng muhim qismlaridan biri – In va Yan unsurlari haqidagi ta’limotdir. Yan qandaydir faol, barcha narsalarning ichiga kirib boruvchi, ashyolarni bilish yo‘lini yorituvchi narsa sifatida ifoda qilinadi; In uchun kutib turuvchi faoliyatsizlik o‘rin ajratilgan, negaki, u qorong‘ilik ibtidosidir. In va Yanning harakati – yagona narsada yuz beradigan o‘zgarishlarning dialektik harakatidir. In va Yanning o‘zaro bir-biriga kirishidan ularning o‘zaro ta’sirini aks ettiruvchi bir qator tushunchalar paydo bo‘ladi. Konfusiychilik axloqiy qoidalar va ijtimoiy boshqaruv masalalariga diqqat-e’tiborni qaratdi. Konfusiychilik uchun eng mukammal namuna o‘tmish edi. Konfusiy (er.ol. 551-449 yy.) o‘zi haqida shunday degan edi: “Eskini bayon qilaman va yangini

yaratmayman”. Konfutsiyning fikricha, olamni osmon boshqaradi. Biz yashab turgan olam, undagi tartib osmon hukmdori tomonidan yuborilgan. Jamiyat hayotidagi tartibga qattiq amal qilish talab etiladi. Tartib, Konfusiyning fikricha, ilohiy mazmunga ega va uning mohiyatini “Li” tushunchasi belgilaydi. Konfutsiychilikning asosiy axloqiy-siyosiy qoidalari quyidagilardan iborat edi: - “Xalqni shafqat bilan boshqarish va xalq ichiga xulq-atvor qoidalari yordamida tartibni joriy qilish”; - “Osmon irodasidan qo‘rqish” va “o‘lganlar ruhini hurmat bilan yodga olish”; - “Tug‘ma bilimlarga ega bo‘lganlar” (mukammal donishmandlar) va “o‘qish-o‘rganish natijasida bilimga ega bo‘lganlar” mavjudligini tan olish, ya’ni o‘qish-o‘rganish tufayli bilimlarni kasb etish imkoniyati borligi va ta’lim-tarbiyaning buyuk rolini qayd etish; - “Oltin o‘rtamiyonalik yo‘li”, “ikki qarama-qarshi qirrani qo‘lda ushlab, ammo xalq uchun o‘rtachasidan foydalanish” qoidasini qo‘llash, ya’ni qarama-qarshiliklarni yumshatish va murosasozlik nazariyasiga rioya etish. Konfusiy tomonidan birinchi marta “oltin qoida” deb nom olgan va keyinchalik ko‘pchilik mutafakkirlar tomonidan qolipga solingan, - “o‘zingga ravo ko‘rmagan narsani, boshqa odamlarga ham ravo ko‘rma” qoidasi shakllantirildi. An’anaviy konfutsiychilikning asosiy tushunchalari quyidagilar: “Li” - urf-odat va marosimlarga rioya etish, udum; “Si” - axloqiy me’yorlarni amalga oshirish; “In”- ijobiy ibtido, “Yan” -salbiy ibtido, “Dao” - osmon, koinot yo‘li bo‘lib, muayyan tartib va qonunga binoan mavjud, uning ifodasi esa insonning xulq-atvori bo‘lishi lozim, “Chjen”- insonparvarlik, “I” - burch, “Sin” -samimiylik va boshqalar. Konfutsiychilik falsafiy oqimi bilan boshqa bir falsafiy oqim – Daosizm raqobat qilgan. Daosizm asos e’tibori bilan miloddan avvalgi VI asrda vujudga keldi. Bu falsafiy oqimning g‘oyalari “Dao de szin” kitobida e’tirof etiladi. Bu oqimning asoschisi bo‘lgan Lao – Szi (miloddan avvalgi 604 y.t)ning xizmatlari juda ulug‘dir. Bu mutafakkir va uning shogirdlari ta’kidlaydilar-ki, tuman yoki gazsimon holatdagi boshlangich materiya-Si umumiy qonun – Dao bilan birgalikda dunyoning asosini tashkil etadi. Si tufayli 5 ta moddiy element – o‘t, suv, tuproq, yog‘och va temir elementlari va ular asosida esa turli shakldagi moddiy narsalar kelib chiqadi. Bu moddiy narsalar va hodisalar esa Dao orqali boshqariladi. Dao – abadiy va mutlaqdir. U olam harakatini, hayot jarayonlarini boshqaradi. Daoning mohiyati esa Yan (yaxshi, yorug‘) va In (yomon, qorong‘u) singari qarama - qarshi kuchlar o‘rtasidagi kurashdan iboratdir. Daosizm aqidasiga ko‘ra, tafakkurning maqsadi, insonni tabiat bilan “qo‘shilib ketishi” dadir, negaki, u uning tarkibiy qismidir. O‘rta asr Sharq ilmiy-falsafiy qarashlarining o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat: 1) falsafa so‘zining kelib chiqishi Yunonistonda rivojlangan filosofiya bilan bog‘liq bo‘lib, musulmon falsafasi antik davr faylasufasi va ayniqsa Platon va Aristotelning qarashlari ostida shakllangan; 2) falsafa - dindan qisman ajralgan holda rivojlanib, dunyoviy bilimlar, madaniyat, san’at, adabiyotning rivojlanishida ijobiy rol o‘ynagan; 3) peripatetizm, yoki aristotelizmning o‘yg‘onishi va keyingi rivoji natijasi sifatida Sharq Renessansining boshlanishi. Abu Bakr Roziy (865-925) buyuk mutafakkir va alloma (ensiklopedik) olim edi. Uning falsafiy qarashlari Eron, Hind va Qadimgi Yunon ta’limotlari ta’sirida shakllangan edi. Ar-Roziyning qayd etishicha, abadiy besh ibtido mavjud: xoliq, mutlaq makon, mutlaq zamon, ruh va modda. Dunyo ana shular yig‘indisidan tashkil topgan. U Arastu va boshqa faylasuflarning harakat manbai ashyolardan tashqarida joylashgan va “birinchi turtki” mavjudligi haqidagi ta’limotlariga muvofiq nuqtai nazarda emas edi. Uning fikricha, harakat ashyolarning o‘zining ajralmas xususiyati bo‘lib, uning manbai ularning ichida edi. Abu Yusuf ibn Is’hoq al-Kindiy (800-879) yirik faylasuf bo‘lib, Sharq arastuchiligi deb atalgan oqimning boshlab beruvchisi edi. Al-Kindiy turli bilim sohalariga – geometriya, astronomiya, optika, meteorologiya, tabobat, musiqa va filosofiyaga bag‘ishlangan 150 ga yaqin asar yozgan. U falsafa mavzusini boshqa xususiy fanlar mavzusidan farq qilar edi. Kindiy aqidasicha, har qanday ashyo bir-biri bilan o‘zaro bog‘langan besh qismni, ya’ni modda, shakl, harakat, makon va zamonning mavjudligini taqozo qiladi. Mutakallimlarga qarshi o‘laroq, Kindiy tabiatda sababiy bog‘lanishlarning mustahkamligini qayd etadi. U “Arastu risolalarining miqdori va falsafani o‘zlashtirish uchun nimalar zarurligi haqida kitob” yozib, unda kimki, o‘zini falsafaga bag‘ishlagan bo‘lsa, Stagirit (Arastu) falsafasini o‘rganmog‘i zarurligini isbotlab berdi. U Qur’onga ishonchsizlik bilan qarab, uni tanqid qildi. Ilk musulmonchilik e’tiqodidagilar nazarida u bid’atchi edi. Jaholatparastlik davrida uning kitoblari yo‘q qilindi. Abu Abdullah Muhammad Xorazmiy (997 v.e.) X asrning eng yirik ensiklopedik olimlaridan biri edi. U Xorazmda tavallud topgan bo‘lib, keyinchalik Yaqin Sharq mamlakatlarida yashadi. U Yaqin va O‘rta Sharqda yaratilgan ensiklopediyalardan biri bo‘lgan “Mafotih al-ulum” (“Ilmlarning kalitlari”) asarining muallifi sifatida shuhrat topdi. Barcha fanlarni Xorazmiy “shariat” va “arabcha bo‘lmagan”larga bo‘ladi. “Shariat” fanlari ustun darajada din bilan hamda arab tilida gaplashuvchi jamiyatning til muammolari bilan bog‘liq bo‘lsa, “arabcha bo‘lmagan” lar (Xorazmiy bu yerda “Yunon va boshqa xalqlar” ni nazarda tutadi) esa, o‘sha zamonning barcha bilimlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Xorazmiy jismlarning cheksiz ravishda “qoidaviy bo‘linishi” imkoniyati borligini, ya’ni tasavvur qilish mumkinligini qaytd etdiki, keyinchalik Ibn Sino uni “imkoniyatdagi bo‘linish” deb atadi. Biroq “moddiy bo‘linish o‘zining oxirgi hududiga ega, negaki, bo‘linayotgan jism shunday zarur kichiklikka yetib boradiki, o‘zining tabiatiga ko‘ra u eng kichik bo‘ladi. Hissiy qabul qilish uchun u juda ham ingichkadir”. O‘zining ensiklopedik (hamma tomonlama) bilimlari sharofati bilan “Sharq Arastusi” va “Ikkinchi muallim” (Arastudan keyin) unvonlariga

sazovor bo‘lgan Abu Nasr ibn Muhammad Forobiy (873-950) buyuk faylasuf edi. Forobiy fikricha, yagona borliq olti bosqichdan iborat bo‘lib, ular ayni bir vaqtda barcha mavjud narsalarning ibtidosi sifatida bir-birlari bilan sababiy bog‘lanishdadirlar. Birinchi bosqich – birinchi sabab (Xudo); ikkinchisi – samoviy jismlar borlig‘i; uchinchisi – faol aql, to‘rtinchisi – ruh; beshinchisi – shakl; oltinchisi – modda. Shunday qilib, xudo va modda, yagona bir butunni tashkil etib, bir qator bosqichlar orqali bir-birlari bilan sababiy bog‘lanishdadirlar. O‘zlarining sababiy bog‘lanishlari tufayli ushbu ibtidolarni ikki ko‘rinishga ajratiladilar: “vojibul vujud” - shunday narsaki, mavjudligi o‘zidan kelib chiqadi; “mumkinul vujud” - shunday narsaki, uning mavjudligi boshqa narsadan kelib chiqadi. “Mumkinul vujud” o‘zining bor bo‘lishi uchun sababga ehtiyoj sezadi, va qachonki u paydo bo‘lsa, boshqa narsa tufayli, “vojibul vujud” ga aylanadi. Forobiyning fikricha, “barcha ashyollarning umumiy turi dunyo” bo‘lib, oddiy jismlardan tashkil topgan va “dunyodan tashqarida hech narsa yo‘q”.

Xulosa: Sharq falsafasining madaniyati, ma’rifati, buyuk allomalari va so‘nmas tarixi falsafa faning zabardast ustuni ekanligi ushbu maqolada yorqin hayotiy misollar orqali namoyon etilgan.

ADABIYOTLAR

1. Nazarov Q. Falsafa. -Toshkent:, 2018.
2. Shermuxamedova N.A. Falsafa -Toshkent: Noshir, 2012. 3. Abddulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. -T.: O‘FMJ, 2010.
3. Abddulla Sher. Estetika. Darslik. T.: O‘zbekiston, 2016.
4. Sharipov M., Fayzixo‘jaeva D. Mantiq. T.: Universitet, 2007.
5. Abdusamedov A.E. Dinshunoslik. T.: O‘zMU, 2008.